



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

OHANGARON VODIYSINING TARIXIY GEOGRAFIK NOMLARI XUSUSIDA

Xolmatova Marxabo Gulamjanovna

magistrant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Mirakmalov Mirali Turonboyevich

g.f.d (DSc)., dotsent

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistondagi qadimiy tarixiga ega bo‘lgan hududlaridan biri – Ohangaron vodiysining tarixiy nomlari haqida ma’lumotlar berilgan. Vodiydagi tarixiy joy nomlariga oid dastlabki ma’lumotlar arab, fors hamda xitoy manbalarida keltirilgan, ularni izohlash uchun tarixiy asarlarga murojaat qilingan: Mahmud Koshg‘ariy, Istaxriy, Ibn Xavqal va “Hudud al-olam” asarlaridagi ayrim toponimlarga izohlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy geografik nomlar, arab, fors, xitoy manbalari, Mahmud Koshg‘ariy, Istaxriy, Ibn Xavqal, “Hudud al-olam”, Qang‘ davlati, Iloq, Tunkat, Banokat, Kangyuy.

ABOUT HISTORICAL GEOGRAPHICAL NAMES OF THE AKHANGARAN VALLEY

Kholmatova Markhabo

Mirakmalov Mirali

Annotation: The article provides information about the historical names of one of the regions of Uzbekistan with an ancient history - the Ahangaron Valley. Preliminary information on the names of historical places in the valley is given in Arabic, Persian and Chinese sources, and to explain them, reference is made to historical works: Mahmud Kashgari, Istakhri, Ibn Hawqal and some toponyms in the works "Hudud al alam".

Keywords: historical geographical names, Arabic, Persian, Chinese sources, Mahmud Kashgari, Istakhri, Ibn Khawqal, “Hudud al alam”, Qang state, Ilaq, Tunkat, Banokat, Kangyuy.

Ma’lumki, har bir joy nomining tarixning ma’lum bir davriga borib taqaladigan, o‘sha davrdagi an‘analar, voqea-hodisalar haqida hikoya qiladigan o‘ziga xos tarixi hamda anglatadigan ma’nosi bor.

Arxeologik qidiruv ishlari, yozma manbalar o‘rganilayotgan hudud uchun qanchalik muhim bo‘lsa, joy nomlari ham har bir o‘lka uchun muhim tarixiy manba hisoblanadi. Yurtimiz hududida bir necha ming yildan ziyod tarixga ega bo‘lgan joy

nomlari juda ko'p bo'lib, ular hududlarning madaniy hayoti, ijtimoiy-siyosiy holati haqida qimmatbaho, tarixiy ma'lumotlarni beradi.

O'zbekistondagi o'zining qadimiy tarixiga ega bo'lgan hududlaridan biri Ohangaron vodiysidir. Ohangaron vodiysi qadimdan aholi maskanlaridan biri bo'lib, vodiya o'zining uzoq, kamida ikki ming yillik tarixiga ega. Vodiya tarixida mavjud bo'lgan joy nomlariga oid ma'lumotlar arab, fors hamda xitoy manbalarida saqlanib qolgan bo'lib, ba'zi joy nomlari so'g'd tili manbalarida ham uchraydi.

Ohangaron vodiysi miloddan avvalgi I asrdan boshlab **Qang'** davlati tarkibida bo'lgan. Toshkent viloyati bo'yicha 97 shahar va qishloqlar Qang' tarkibida bo'lib, shulardan eng kattasi Qanha edi [7, 9-bet].

Qang' atamasi haqida: 1. Mahmud Koshg'ariy ta'rifida **Qang'li** – “buyuk qipchoq o'g'li” degani.

2. Abdulg'oziyning “Shajarayi turk” asarining 2-betida “**Qaniqli**” deb yozilgan.

Bu arava yasovchi ustaning nomidan edi. Ushbu mamlakat xitoy manbalari, so'ngra rus adabiyotida **Kangyuy** deyilgan [3, 32-39-b].

Qadimgi davrda Chotqol va Qurama tog'larining Sirdaryogacha bo'lgan havzasida yuqori darajada taraqqiy etgan buyuk **Iloq (Ayloq, Eloq)** davlati mavjud bo'lgan.

Muallifi noma'lum bolgan “Hudud al-olam” (IX asr) risolasi va Al-Istaxriyning “Kitob-al-masolik va mamolik”(XI asr) asarida Ohangaron vodiysi haqida ilk ma'lumotlarni ko'rish mumkin. Alohida shakllangan siyosiy uyushma sifatida Iloq VII asrga oid manbalarda tilga olingan bo'lib, lekin juda qadim zamonlarda qanday nomlar bilan yuritilganligi borasida ma'lumotlar mavjud emas. Iloq toponimining etimologiyasi manbalarda quyidagicha ta'riflangan: Ohangaron vodiysi qadimdan **Iloq** yoki **Ayloq** deb atalgan. Arab yozuvida bu so'zlar bir xilda yozilaveradi, ba'zi manbalarda alif ustiga qoshimcha belgi qo'yib yozilgan va **Ayloq** deb o'qilgan. Ayloq – “yayloq”, ya'ni “yozgi yaylov” degani [5, 138-b]. Iloq atamasining kelib chiqishiga oid Nuh alayhissalomning to'rt o'g'li bilan bog'liq rivoyat ham mavjud [4, 10-b].

Filologiya fanlari doktori, professor Isomiddin Yormatov tarixiy Iloq davlatida mavjud bo'lgan bir qancha shaharlar nomlarini keltirib o'tadi: Banokat, Tunkat, Nukat (Nukas, Navkas, Tukat), Oblig' (Abrlig', Obrlig'), Namudlig', Dahkat, Qusam, Tukkat, Xos (Xash, Xas), Biskat, Samsirak (Somsarsak), Xumrak, Panjxash (Panjshah), Boloyon, Xirojkent (Xarjankat), Sikat, Garjard. Keltirib o'tilgan nomlarga e'tibor berilsa, ularning ayrimlari sonlar bilan aytilganini ko'rish mumkin (Sikat-“si”- o'ttiz, “kat”-qo'rg'on, qal'a, Nuhkat-“nuh”-to'qqiz, “kat”-qal'a, qo'rg'on, shahar).

Vodiydagi tarixiy nomlarning biri – **Tunkat**dir. Tunkat (Tunkent) VI asr oxiridan Qadimgi Iloq davlatining poytaxti bo'lib, hozirgi Piskent va Olmaliq shaharlari oralig'ida (“Birlik” fuqarolar yig'ini hududi) joylashgan. “Hudud al-olam” (XI asr) risolasida mazkur toponimga “**Tunkat-Buxoronon-Iloq** manzilgohi. Olmaliq

yaqinidagi qasaba. Iloq, Chotqol, Choch oralig'ida nohiyalari bor..." deya ta'rif berilgan [1, 32-betdagi izoh].

Dastlab arab geograflari Istaxriy, Ibn Xavqal (X-XI asrlar) asarlarida **Biskat** shaklida tilga olingan hozirgi **Piskent** toponimi ham tarixiy nomlardan biri bo'lib, forscha "bis"-“yigirma”, yoki so'g'dcha “pish-pis”-nari (tomon) so'zlari bilan bog'lanadi.

Qadimgi **Banokat (Banunkat)** xarobalari o'rnida qad rostlagan **Shohruxiya** 1392-yilda buyuk sarkarda Sohibqiron Amir Temur tomonidan harbiy qal'a sifatida qayta tiklanib, o'g'li Shohrux Mirzo sharafiga “**Shohruxiya**” deb atagan. Sirdaryoning o'ng qirg'og'iga, Ohangaron daryosining Sirdaryoga quyilish yeriga yaqin joylashgan bo'lib, Z.M.Bobur bu shaharni o'z asarlarida bir necha bor tilga olib o'tgan [9, 13-b].

Tarixda **Binokant, Binokent, Bunkat** nomlari bilan atalgan **Dukent** toponimi (“du”-tojikcha “ikki”, “kent”-so'g'dcha “qasr, qal'a, shahar) “Hudud al-olam” asarida **Dahkas (Dahkent)** tarzida keltirilgan, Dukentsoyning o'ng sohilida joylashgan [1, 31-betdagi izoh].

Ohangaron vodiysidagi tarixiy nomlarni o'rganar ekanmiz, Ohangaron toponimining etimologiyasiga ham to'xtalib o'tish muhimdir.

V.V.Bartoldning fikricha, Ohangaron atamasi mo'g'ullar bosqini davrida paydo bo'lgan. Demak, mazkur toponim vodiy va daryoning nomi sifatida XIII asrda iste'molga kirgan va o'shandan buyon muntazam qo'llanilib kelinmoqda. Z.M.Bobur “Boburnoma” asarida Ohangaron jilg'asi (vodiysi) deb yozgan.

Ohangaron – shahar. Forscha ohangar – “temirchi”, on-ko'plik affiksi (Ohangaron “temirchilar”). Ohangaron toponimi daryo sifatida dastlab Xo'ja Ahrorning vaqf hujjatlarida **Soyi Ohangaron, Obi Ohangaron, Daryoi Ohangaron** shakllarida tilga olingan [5, 148-b].

Ohangaron daryosi Sirdaryoning o'ng irmog'idir. Ushbu gidronimning bir qancha talqinlari mavjud. Masalan, dastlab Xo'ja Ahrorning vaqf hujjatlarida **Soyi Ohangaron, Obi Ohangaron** shakllarida tilga olingan, **Daryoi Ohangaron** ham deyilgan. Bobur **Ohangaron jilg'asi** deb (havzasi) deb tilga olgan bo'lsa, mo'g'ullar kelmasdan oldingi manbalarda **Iloq daryosi** deb atalgan. Shuningdek, bu havzada qaqindan temirchilik rivojlangani uchun ham daryo Ohangaron, ya'ni “**Temirchilar**” deb nom olgan bo'lishi ham mumkin [10, 149-b.].

Ohangaron vodiysida yuqorida keltirilgan tarixiy joy nomlaridan tashqari juda ko'plab toponimlar mavjud bo'lib, ularning etimologiyasini o'rganish orqali ajdodlarimiz yashagan muqaddas zamin – Ohangaron vodiysining o'ziga xos bo'lgan tabiati, madaniyati, urf-odatlarini, tarixi, o'tmishi haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hudud al-alam. O.Bo'riyev tarjimasini. –T.: “O'zbekiston”, 2008.
2. Ibrohimov U., Qayumov M. Ohangaron sarkorlari. –T.: “Sharq”, 1999.
3. Muhammadjonov A. Qadimgi Toshkent va toshkentliklar. –T.: “Sharq”, 2009.
4. Qayumov M. “Ohangaron”(monografiya). -Toshkent, 2011.
5. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari.-T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2005.
6. Razzoqov A. Ohangaron gavharlari. -Toshkent, 2019.
7. Razzoqov A. Qorabog'. –T.: Alisher Navoiy nomidagi Davlat Milliy kutubxonasi, 2012.
8. Tabiat - Inson – Jamiyat. Ohangaron vodiysining tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, ijtimoiy-tarixiy, ekologik-rekreations holati va xalq ta'limi // Ilmiy-nazariy va uslubiy anjuman materiallari.-Angren,1996.
9. Ubaydullayev A., Kostetskiy B. Afsonalardagi shahar. –T.: “Navro'z”, 1996.
10. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. -T.: 1990 (nashrga tayyorlovchi va so'z boshi muallifi B.To'xliyev).